

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

**ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA HIKOYA JANRINIONG O‘QITISH
(ISAJON SULTON IJODIYOTI MISOLIDA)**

ANNOTATSITYA: Ushbu maqolada Isajon Sulton qalamiga mansub bo‘lgan hikoyalarni o‘qitish jarayonida adabiy unsur va noan’anaviy dars uslublaridan foydalanish haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Maqolada adabiyot darslarini tashkil etish yuzasidan hikoya janrining o‘qitish jarayonida turli xil qo‘llanadigan metodlar va usullarning samaradorligini oshirishda kommunikativ axborot vositalaridan foydalanish lozim ekanligi ham izohlangan. Maqolada Isajon Sulton qalamiga mansub bir necha hikoyalarning yaratilishi tarixi va uslub va shakllariga oid bo‘lgan fikr va mulohazalar mavjud.

KALIT SO‘ZLAR: Adabiy unsurlar, metod, kommunikativ texnologiya, hikoya janri, qayta hikoya qilish metodikasi, noan’anaviy dars, adabiy prinsiplar.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotini o‘qitish va unga berilayotgan e’tibor har qachondan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyot darslarini tashkil etishda o‘quvchi-yoshlarning hikoya janrini tahlil qilish va badiiy tahlil asoslari bilan fikr yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra hikoya o‘qitish metodikasida qayta hikoya qilish usullarining Isajon Sulton asarlari bilan bog‘liqligini unutmagan holda tahlil qilish o‘ziga xoslikni yuzaga keltiradi. “Ushbu mavzudagi bir qator o‘quv qo‘llanmalari bilan birga «Kitob o‘qishni bilasizmi» nomli kitobida kitobxonlik madaniyati haqida so‘z yuritiladi, badiiy asarni o‘qish va uqish salohiyati haqida qimmatli mulohazalarni bayon etiladi: «Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatları haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ularni aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotiringizda qayd etasiz. Ammo bu bilim va xulosalar hissiyotingizga zarracha ta’sir ko‘rsatmaydi. Badiiy asarni o‘qiganda sizdagi bu «loqaydlik» faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg‘anadi – ruhlanasiz, g‘azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni befarq qoldirmaydi”.[1]

O‘quvchi-yoshlarga maktab ta’lim tizimida hikoya o‘qitish tizimining rivojlantirilishi barobarni Isajon Sulton ijodiyoti katta yordam beradi. Shu bilan birga Isajon Sultonning boshqa janrdagi asarlari ham tahlil jarayoni uchun o‘ziga xoslikni yuzaga keltiradi. «Munojot», «ozod» romanlari misolida bu so‘zimizni isbotlashimiz mumkin. Ayni bu borada hikoyalardagi qahramonlar timsoli va ularning qattiq harakatlarining badiiy tahlil qilinishi asar syujeti bir necha voqealar tizimiga asoslangan holda qurilishi ham yozuvchi qobiliyatining badiiy tahlilini ochib beradi. Ijodkorning «Alisher Navoiy» romani adabiyot nashriyotida chop etilgan kundan boshlab ijodkorlar tomonidan tahlilga tortiladi o‘quvchi-yoshlarning ushbu janrdagi asarlarni o‘qish o‘rganish baravardi irsiyatga yutuqlari ham so‘zimizning isbotidir. «Samoviy bog‘», «ayriliq» hikoyasi Ozarbayjon tilida chop etilgan. “Prof. Q. Yo‘ldoshevni adabiyot o‘qitish metodikasi ilmida burilish yasadi deyish mumkin. Olim tubdan o‘zgargan jamiyatdagi adabiy ta’limni mohiyatan o‘zgartirishning ijtimoiy, ilmiy va pedagogik asoslarini ko‘rsatib berdi. U adabiy faktlarni bildirishning o‘zi adabiyot saboqlari uchun maqsad emasligini, badiiy asar bilan tanishish o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirishga qaratilishi kerakligini ta’kidlab yozadi: «Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma’naviyatida ezgu fazilatlar bo‘lmagan o‘quvchidan ko‘ra, ...badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarni o‘z tabiatiga singdirgan, sirtdan qaraganda, nofaolday tuyuladigan o‘quvchilar jamiyatimiz uchun ko‘proq zarurdir”.[2]

«Ayriliq» hikoyasidan so'ng esa «jannat degan sayyoradan keldik» nomli asari va «suvdagi kosa» hikoyalalar rus adabiyoti va milliy adabiyotimizda keng tarzda o'rganilgan hikoyalarning dolzarbligini ochib berish va o'quvchi-yoshlarga tushuntirish darajasida qahramon va obrazlar bir necha tiplardan foydalanadi. Ayni ijodkorning uslubiy shakllaridan foydalanish nuqtayi nazaridan milliy qadriyatlar va jahon adabiyoti o'qitish uslublaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. «Suvdag'i kosa» hikoyasida yoshlik chog'lari va bolalarning hayotida bo'layotgan voqeа hodisalar, yoshlik tasvirlari qalamga olingan. Aynan «mas'uma» va «Bilgan xoqon» asarlari tarixiy va mazmun jihatdan biroz murakkabroq tuyilsada hikoyalarning romanlarga qaraganda dolzarblik nuqtai nazari aslo kam emas. Shu bilan birga ajoyibotlar nomli hikoyasida keltirilgan mavzu ko'lami sayyoralar, kishilar, yoshlik va sog'inch tushunchalari ham katta bir ahamiyatlilik darajasini yo'qotmagan.

«O'qituvchi bu sinfda o'rganilishi mo'ljallangan asarlarni o'quvchilar bilan birlgilikda tahlil qilishda badiiy matndan kelib chiqadigan ijtimoiy, siyosiy, milliy, ma'naviy mazmundan ham ko'ra, asarlar estetik xususiyatlarining o'zlashtirilishiga ko'proq e'tibor qaratishi shart – ekan alohida ta'kidlangan. Q.Yo'ldoshev badiiy asar tahlilining nazariy-metodik masalalari ustida jiddiy izlanishlar olib borib, «Badiiy tahlil asoslari» kitobini yaratdi. Bu asarda tahlil turlari, yo'nalishlari, tamoyillari va tahlilga qo'yiladigan talablar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu qarashlar respublika ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki beradi. Olim badiiy asar tahlili shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirish omili ekaniga alohida e'tibor qaratadi». [3] Isajon Sulton hikoyalari asosida darsni tashkil qilishda o'quvchi-yoshlarga noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish katta yordam beradi. Bu borada biz ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy salohiyatini oshirishga qaratilgan turli xil metod va uslublardan foydalanishimiz kerak. «Samoviy bog» hikoyasi uchun ko'plab indonlar tasvirlari va o'quvchi-yoshlar uchun qulay bo'lgan bog' tasvirlaridan, «sofiya», «ayriliq» nomli hikoyalarida esa Ozarbayjon xalqi va chet il madaniyatiga mos va xos bo'lgan uslublardan foydalanish kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchi asarni o'qiganda unga nisbatan xulosa va fikr bildirishi barobarida asarini tahlil qilish o'qishi katta bir vogelik asosida yuzaga keladi. Shu boisdan ham Isajon Sulton asarlarining yaratilishi va tashkil etilishi jihatdan yosh va saviya darajasidan farqlidir. «Sofiya» hikoyasi va «ayriliq» hikoyalari, «baliq» nomli hikoyalari buning isbotidir. «Baliq» hikoyasining xalqlar do'stligi jurnalida 2012-yili chop etilgandan boshlab kitobxonlar qalbidan chuqr joy egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi? – T.: «O'qituvchi», 1993.11-bet
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996. 42-bet.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar. 8. Umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Sharq, 2004..